

O‘ZBEK TILI AVIATSIYA TERMINLARINING SOTSIOLINGVISTIK BIRLIK SIFATIDA IFODALANISHI

Ra’no Ergashova To’rayevna

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining

Harbiy aviatsiya instituti professori

E-mail: ergashova-91@mail.ru

Tel: (97)8601312

ORCID ID: 0000-0003-0542-434X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20082692>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tili aviatsiya terminlarining sotsiolingvistik birlik sifatidagi mohiyati ularning jamiyatdagi funksional maqomi va qo‘llanish doirasi bilan bog‘liq holda tahlilga tortilgan. Aviatsiya terminlarining ijtimoiy differensiallashuvi, kasbiy guruhlar nutqidagi xoslanishi hamda terminologik birliklarning kommunikativ samaradorlikni ta‘minlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, terminlarning til tizimiga integratsiyalashuvi, milliy va xalqaro omillar ta‘sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlar hamda ularning sotsiolingvistik xususiyatlari ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, aviatsiya terminologiyasi, sotsiolingvistik birlik, ijtimoiy differensiallashuv, kasbiy nutq, terminologik integratsiya, kommunikativ samaradorlik, terminologik tizim.

АВИАЦИОННАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА

Раъно Эргашова Тураевна

Профессор Военного авиационного института

Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан

E-mail: ergashova-91@mail.ru

Тел: (+99897) 860-13-12

ORCID ID: 0000-0003-0542-434X

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность авиационной терминологии узбекского языка как социолингвистической единицы в связи с её функциональным статусом в обществе и сферой употребления. Анализируются процессы социальной дифференциации авиационных терминов, их специфика в речи профессиональных групп, а также роль терминологических единиц в обеспечении коммуникативной эффективности. Кроме того, научно обоснованы вопросы интеграции терминов в языковую систему, изменений под влиянием национальных и международных факторов, а также их социолингвистические характеристики.

Ключевые слова: узбекский язык, авиационная терминология, социолингвистическая единица, социальная дифференциация, профессиональная речь, терминологическая интеграция, коммуникативная эффективность, терминологическая система.

UZBEK AVIATION TERMINOLOGY AS A SOCIOLINGUISTIC UNIT

Ra’no Ergashova Turayevna

Professor, Military Aviation Institute,

University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

E-mail: ergashova-91@mail.ru

Tel: (+99897) 860-13-12

ORCID ID: 0000-0003-0542-434X

Abstract

This article examines the essence of Uzbek aviation terminology as a sociolinguistic unit in relation to its functional status in society and its scope of use. It analyzes the social differentiation of aviation terms, their specialization in the speech of professional groups, and the role of terminological units in ensuring communicative efficiency. Furthermore, the integration of terms into the language system, the changes arising under the influence of national and international factors, and their sociolinguistic characteristics are interpreted on a scientific basis.

Keywords: *Uzbek language, aviation terminology, sociolinguistic unit, social differentiation, professional discourse, terminological integration, communicative efficiency, terminological system.*

Sotsiolingvistika tilshunoslikning zamonaviy tarmoqlaridan biri sifatida tilning ijtimoiy mohiyati, uning jamiyatdagi vazifalari, ijtimoiy (sotsial) qatlamlar, kasbiy guruhlar, turli xir madaniyatlarga xos aloqa jarayonlaridagi o‘zgarishlarni o‘rganadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy meros va kasbiy aloqalarni o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgu ham hisoblanadi.

Kishilik jamiyatida har bir soha vakillarining o‘zi uchun xos bo‘lgan “til”i mavjud bo‘lib, bu til fanda soha terminologiyasi deb ataladi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan aviatsiya terminlari ham sotsiolingvistik nuqtayi nazardan alohida tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsion tadqiqotning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Sotsiolingvistik yondashuvda til ijtimoiy tizim bilan bog‘liqlikda o‘rganilganligi sababli aviatsiya terminlari ham bu jihatdan faqat texnik tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmasdan, balki professional jamoaning kommunikativ, madaniy va ijtimoiy o‘ziga xos xususiyatlarini ham ifodalaydi, ya’ni har bir aviatsion terminda ma’lum bir tarixiy, ijtimoiy va kasbiy tajriba mujassamlashadi.

Sotsiolingvistika fan sifatida tilning jamiyat bilan aloqasi, ijtimoiy guruhlarining o‘zaro muloqotdagi til xususiyatlarini o‘rganadi. Labov, Xolms, Fishman kabi tilshunoslar o‘z tadqiqotlarida tilning ijtimoiy tabaqalanishi haqida to‘xtalib o‘tishgan. Mazkur olimlarning fikricha, “til jamiyatning sotsiokultural ko‘zgusi”¹ hisoblanadi. Har qanday soha kabi aviatsiya tizimi ham ijtimoiy-lisoniy guruhlardan biri bo‘lib unda faoliyat olib boruvchi mutaxassislar (uchuvchilar, dispetcherlar, texnik xodimlar, muhandislar va boshqalar) o‘zaro maxsus aloqa almashish tizimidan foydalanadilar. Ushbu tizimdagi terminlar, kodlar va qisqartma so‘zlarning o‘ziga xos mazmuniy va pragmatik vazifasi mavjudligi sababli aviatsiya tiliga tilshunoslar tomonidan professional submadaniyat tili deb qaralmoqda².

¹ Labov W. Sociolinguistic patterns. (Conduct and Communication, 4.) Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P.372.; Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. Routledge. Fourth edition published 2013, – P. 489.; Fishman A. Sociolinguistics: A brief introduction. Newbury House, 1971. – P. 126.

² Wardhaugh R. An introduction to sociolinguistics (5 th ed.). USA: Wiley- Blackwell, 2006. – P. 418.

Har qanday soha boshqa sohadan, eng avvalo, sohaga xos terminologiyasi bilan farqlanadi. Aviatsiya sohasi ham bundan mustasno emas, shu bois soha mutaxassislarining nutqi o'ziga xos professional identifikatsiya vositasi hisoblanadi. Masalan, parvoz jarayonida uchuvchilar o'zaro muloqotda “kursni ushlab turish”, “uchish tezligi”, “qayta qo'nish”, “barqaror parvoz balandligi” kabi terminlardan foydalanadi. Bu kabi terminlar nafaqat texnik jarayonni, balki kasbiy kommunikatsiyani ham ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan aviatsiya terminlari “kasbiy kod” sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy terminlar har qanday jamiyatdagi kasbiy rol taqsimotining lingvistik ifodasi sifatida baholanar ekan, aviatsiya terminlari misolida ham kasbiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Aviatsiya mutaxassislari tilida kod almashuv hodisasi keng tarqalgan bo'lib, uchuvchilar hamda dispetcherlar bir-biri bilan muloqot qilganda inglizcha, ruscha va o'zbekcha so'zlarni aralashtirib ishlatadilar. Masalan:

1-jadval

Aviatsiya mutaxassislari tilida uchraydigan kod-almashuv hodisasini ifodalovchi terminlar

T/r	Aviatsiya termin(lar)i	Aviatsiya mutaxassislari tilida uchraydigan kod-almashuv hodisasiga misol
1	<i>Uchuvchi, bortmuhandis, radist, styuardessa.</i>	<i>Ey, menga qarang, siz bugxalteriya bilan moliya boshqarmasi-yu tijorat departamentining oyligini otning kallasidek oshiribsiz, rahmat, qulluq! Lekin nega uchuvchilar, bortmuhandis, radist, styuardessalarni chetga surib qo'ydingiz? (O-38).</i>
2	<i>Uchuvchi, uchish vaqti, aeroport, komandir, samolyot, havo kemasi, reys, uchish balandligi.</i>	<i>– N. – Toshkent yo'nalishi bo'ylab 163-reysni amalga oshiruvchi “Boing-767” ekipaji parvozga tayyor. Uchish masofasi – 5600 kilometr. Uchish balandligi – 10800 metr. Uchish vaqti – 5 soat-u 30 minut. Kema tashqarisidagi havo harorati – minus 56 daraja. Samolyot mahalliy vaqt bilan 22:30 da Toshkent xalqaro aeroportiga yetib boradi. Kema komandiri – oliy toifali uchuvchi Shamshetov (O-47).</i>
3	<i>Samolyot, turbulent, xavfsizlik kamari</i>	<i>– Hurmatli yo'lovchilar, samolyotimiz turbulent hududga kirmoqda. O'rindiqlarni vertikal holatga keltirib, xavfsizlik kamarlarini taqib olishingizni so'raymiz (O-62)...</i>

Bu jarayon sotsiolingvistik nuqtayi nazardan bilingvizm va kasbiy kod-aralashuv namunasi hisoblanadi. Bu kabi nutq holatlari til o'zgarishining tabiiy shakli bo'lib, professional guruh ichida yangi kommunikativ me'yorning shakllanishiga turtki bo'ladi.

O'zbek aviatsiya terminlarini sotsiolingvistik aspektda tadqiq qilish orqali quyidagi amaliy natijalarga erishish mumkin:

1. Aviatsiya mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyasini oshirish;
2. Terminlarni me'yorlashtirish jarayonini ilmiy asoslash;
3. Aviatsiya terminlarining milliy tilga o'zlashuv mexanizmlarini aniqlash;

4. Kasbiy muloqotdagi til madaniyatini takomillashtirish.

Har qanday terminosistema, avvalo, uni ishlatadigan ijtimoiy guruh bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, aviatsiya terminlari nafaqat texnik terminlar yig'indisi, balki professional jamoaning ijtimoiy aloqa vositasi ham hisoblanadi.

Aviatsiya sohasida qo'llanadigan terminlarni barcha ijtimoiy qatlamlar bir xil darajada tushunmaydi, chunki bu holat til differensiallashuvi jarayonining natijasi hisoblanadi. Aviatsiya terminlarini quyidagi ijtimoiy qatlamlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. Professional qatlam – uchuvchilar, dispatcherlar, texnik xodimlar, muhandislar va boshqalar. Bu guruhga kiradigan aviatsiya terminlari faqat texnik ma'no ifodalab, matnda faqat soha termini sifatida ishlatadi. Masalan, *dvigatel sinovi*, *gidravlika bosimi*, *shassi tekshiruvi*, *texnik ko'rik*, *ko'rish masofasi*.

2. Ta'limiy qatlam – aviatsiya maktablari, akademiyalar va kurslarda o'qiyotgan talabalar qatlami. Ular terminlarni o'rganish jarayonida semantik jihatdan tahlil qilib, asta-sekin amaliy kontekstda qo'llashni o'zlashtiradilar.

3. Ommaviy qatlam – parvoz xizmatlaridan foydalanuvchi yo'lovchilar, jurnalistlar va keng jamoatchilik. Bu qatlam terminlarning faqat yuzaki yoki metaforik ma'nosini biladi (masalan, *“samolyot uchdi”*, *“aerodrom yopildi”*, *“parvoz kechiktirildi”*).

Aviatsiya terminlar ham boshqa soha terminlari kabi mohiyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Denotativ funksiya. Bunda aviatsiya termini aniq bir texnik jarayon yoki obyektни ifodalaydi. Masalan, *altimeter* – balandlik o'lchagich; *kurs-stabilizator* – samolyotning yo'nalishini avtomatik ravishda ushlab turuvchi qurilma; *aerodinamik tormoz* – qo'nish vaqtda tezlikni pasaytirishga xizmat qiluvchi mexanizm.

2. Sotsial-identifikatsion funksiya. Soha terminlarining bu funksiyasidan foydalanish orqali shaxsning kasbiy mansubligi aniqlanadi. Masalan, *“dispatcher”* yoki *“uchuvchi-yo'riqchi”* kabi terminlar kasbni ifodalash bilan birgalikda professional maqomni ham ifodalaydi.


Aviatsiya terminlarini sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilish natijasida yuqoridagi kabi ijtimoiy funksiyalar nafaqat terminlarning texnik jarayonni ta'minlashdagi o'rnini, shuningdek, shaxsning kasbiy mansubligini ham aniqlashtiradi. Jamiyatdagi kasbiy iyerarxiyani aks ettirishda ham soha terminlarining o'rne beqiyos, chunki soha vakillari (uchuvchi va texnik xodimlar) o'rtasidagi muloqotda tilning ijtimoiy roli faqatgina axborot almashish bilan cheklanib qolmasdan, balki xizmat tartibining ifodalanishida ham namoyon bo'ladi. Masalan, parvoz vaqtda uchuvchi *“Parvoz balandligini pasaytirayman, yangi balandlikni tasdiqlang”* deb murojaat qilish orqali nafaqat texnik signal, balki kasbiy subordinatsiya (buyruq va javob tizimi)ni ifodalovchi lingvistik aktdan ham foydalangan bo'ladi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida aviatsiya terminologiyasining sotsiolingvistik xususiyatlari terminlardan foydalanish jarayonida ishtirok etuvchi guruhlar kesimida statistik jihatdan tahlil qilindi. Ushbu tahlil terminologik tizimning real kommunikativ amaliyotda qanday ijtimoiy qatlamlarga tayangan holda faoliyat yuritishini aniqlashga qaratildi. Texnik adabiyotlardan olingan 6000 dan ziyod terminlar asosida terminlarning professional uchuvchilar va dispatcherlar, texnik-muhandis xodimlar, ta'lim sohasi vakillari hamda ommaviy foydalanuvchilar tomonidan qo'llanilish ulushi foiz ko'rinishida hisoblab chiqildi. Mazkur ko'rsatkichlar aviatsiya terminlarining jamiyatdagi funksional taqsimotini aniqlash,

termin tanlovida til prestiji va kasbiy ehtiyojlarning o‘zaro munosabatini baholash imkonini beradi. Olingan natijalar quyidagi diagrammada aks ettirildi.

4.1.1-diagramma

Aviatsiya terminlaridan foydalanishning foydalanuvchi guruhlariga bo‘yicha sotsiologik taqsimoti



Mazkur diagrammada texnik adabiyotlar asosida aniqlangan aviatsiya terminlarining turli ijtimoiy-professional foydalanuvchi guruhlariga tomonidan qo‘llanilish darajasi shaxsiy kuzatuvlar asosida foizlarda aks ettirilgan. Diagramma tuzilmasi sotsiologik yondashuvga muvofiq ravishda aviatsiya terminologiyasining markazida kasbiy kommunikatsiya jarayoni turganini ko‘rsatadi. Natijalarga ko‘ra, terminlarning asosiy qismi professional uchuvchilar va havo harakati dispetcherlari nutqida faol ishlatiladi, bu esa aviatsiya sohasining yuqori darajada standartlashgan va institutsionallashtirilgan tizim ekanini tasdiqlaydi. Texnik-muhandis xodimlar ham terminologik fondning muhim tashuvchilari sifatida katta ulushni egallaydi. Ta'lim sohasi vakillari, jumladan kursantlar, talabalar va o‘qituvchilar tomonidan terminlarning sezilarli qismi qo‘llanilishi terminologiyaning uzatilishi hamda normativ moslashuvi jarayonida ushbu muhitning alohida rolga ega ekanini ko‘rsatadi. Ommaviy foydalanuvchilar orasida terminlar ulushining nisbatan pastligi aviatsiya terminologiyasining ixtisoslashgan xarakterini hamda uning asosan professional doirada amal qilishini ifodalaydi.

Aviatsiya terminlarining keng omma uchun mo‘ljallangan shakli hamda professional matnda qo‘llanilishi ma‘lum bir farqli xususiyatlarga ega. Jumladan, soha terminlari ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali keng jamoatchilikka yetkazilganda terminlarning semantik mohiyati o‘zgaradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Labov W. Sociolinguistic patterns. (Conduct and Communication, 4.) Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – P.372.; Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. Routledge. Fourth edition published 2013, – P. 489.;
2. Fishman A. Sociolinguistics: A brief introduction. Newbury House, 1971. – P. 126.
3. Ergashova R.T. Ingliz, rus, o‘zbek tillari aviatsiya terminlarining chog‘ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Qarshi: Ilm-fan-ma‘naviyat, 2025. – 212 b.

4. Ergashova R.T. About aviation terms // Mental enlightenment scientific – methodological journal. – Jizzax, 2023. – № 3. – B. 31-38.
5. Ergashova R.T. Linguaculturological features of military aviation terminology // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2023. – № 7. – B. 58-63.
6. Ergashova R.T. Linguistic features of aviation terminology in English, Russian, and Uzbek languages: specificities and commonalities // So‘z san’ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2025. – №8(2). – B. 160-169.
7. Wardhaugh R. An introduction to sociolinguistics (5 th ed.). USA: Wiley- Blackwell, 2006. – P. 418.